

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ELMURADOVA SURAYYO ABDIJALILOVNA

**ZAMONAVIY TA'LIM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna

Zamonaviy ta’lim madaniyatini rivojlantirishning

ijtimoiy-falsafiy masalalari5

Элмурадова Сурайё Абдижалиловна

Социально-философские проблемы развития современной

образовательной культуры.....23

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna

Socio-philosophical issues of the development of modern

educational culture45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ELMURADOVA SURAYYO ABDIJALILOVNA

**ZAMONAVIY TA'LIM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fal818 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Huseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyom Normirzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "14" noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (750- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "28" oktyabr dagi 39 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda insoniyat rivojining asosiy omili – bilim, innovatsiya va ta'lim madaniyatining darajasi jamiyatning ma'naviy rivojlanganligini, ijtimoiy kapitalning shakllanganligi va inson salohiyatini ro'yobga chiqarishning asosiy ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim va "umrbod ta'lim" (lifelong learning) konsepsiyasining ommalashuvi bilim olish jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, ta'lim madaniyatini faqat axborot qabul qilish emas, balki ijodkorlik, axloqiy tanlov, muloqot va ijtimoiy mas'uliyat fazilatlarini bilan uyg'unlashgan tizim sifatida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu ma'noda zamonaviy ta'lim madaniyatining insonning ma'naviy olami, faol pozitsiyasi va o'zini-o'zi anglash jarayonlariga ta'sirini, madaniyat va ta'lim o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni, uni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish global madaniy inqiroz hamda yoshlardagi axloqiy beparvolik va bilimsizlikni bartaraf etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida ta'lim madaniyatini ta'lim jarayonining uzviy bo'lagi sifatida tadqiq etish, uning ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyasi va rivojlanish tendensiyalarini tanqidiy o'rganish, ta'limni inson erkinligi fenomeni sifatida asoslashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim faqat bilim berish emas, balki insonni qadrlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish jarayoni sifatida utilitar yondashuvning kuchayishi, raqobat va natijadorlikka yo'naltirilgan insonparvar tamoyillarini ifodalashi asoslanmoqda. Shu nuqtai nazardan ta'lim madaniyati komponentlarini, konstruktiv potentsialini oshirish omillarini, zamonaviy ta'lim nazariyasining fundamental kategoriyalari va mezonlarini faqat institutsional emas, balki ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida, ya'ni ta'limni ma'naviy qadriyat, ijtimoiy ong, axloqiy meyorning uzviy tizimi sifatida tadqiq etish zurrati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim sohasini isloh etish, ta'lim sifati, ta'lim madaniyati va o'qituvchi mavqeini oshirish hamda uni yangicha mafkuraviy, axloqiy va falsafiy asosda takomillashtirishga oid islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!". Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"¹. Shuning uchun jamiyatning ma'naviy ehtiyojlariga javob beradigan yangi zamonaviy ta'lim madaniyatini rivojlantirishning modelini shakllantirish, ta'limda demokratik muhitni yaratishning nazariy hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda ta'lim madaniyatini yuksaltirish prinsiplarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – B.10-11.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 9-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim jarayoni, ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasiga oid masalalar turli tarixiy bosqichlarda ham inson shaxsiy rivoji, ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ham ma’naviy-madaniy hayot uchun alohida ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etib kelgan. Shu bilan birga, uning tarkibiy unsurlari shaxsning komil inson sifatida shakllanishida, jamiyatning insonparvar va demokratik tamoyillarga asoslangan rivoj yo‘lini belgilashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Xorijlik olimlardan J.Bruner, B.Bernstein, J.Banks, A.Arimoto ta’lim imkoniyatlarini mohirona sharhlab, ta’lim tizimida tenglik tamoyilini joriy etish, kadrlar tayyorlashning raqobatbardoshligini ta’minlash masalalarini o‘z ilmiy tadqiqotlarida asoslashgan. XIX-XX asrda ta’lim madaniyati borasida D.Bell, K.Yaspers, W.Gumbolt, X.Ortega Gasset, A.Uaytxed, J.Dyui² kabi olimlarning

² Bruner Jerome. In 1996, in *The Culture of Education*, reassessed the state of educational practice 30 years after Bruner began his educational research. Bruner, Jerome Seymour (1996). *Educational culture*. ISBN 978-0-674-17953-0.; Bernstein. B. *The structuring of pedagogic discourse*. – London: 1990. - 189 p.; Banks J.A. *An introduction to multicultural education*. - New York: 1999. - 201 p.; Arimoto.A. *Market and Higher Education in Japan*. –Tokio: 1997. -213 p.; Белл Д. Социальные рамки информационного общества. // Новая технократическая волна на Западе. - Москва: Прогресс, 1986. - С.330-342; K. Jaspers. *Die Idee der Universität*. – Reprint [d. Ausg. Berlin, 1946]. — Berlin, Heidelberg, New York: Springer, 1980. - 156 p.; Humboldt W.v. (1794/95). *Theorie der Bildung des Menschen*. In A. Flitner & K. Giel. (eds.). (2010). *Wilhelm von Humboldt. Werke in fünf Bänden*. Bd. I. pp. 234-

izlanishlari diqqatga sazovor. Ular ta'lim tizimini isloh qilish borasida ilmiy-nazariy fikrlarini bayon etadi va ta'lim madaniyatini yuksaltirishga katta hissa qo'shadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.Benin, A.Burov, B.Lixachyov, V.Grexnev, O.Doljenko, V.Razumnyy, V.Kruteskiy, V.Karakovskiy, B.Gershunskiy³ ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim madaniyatining industrial jamiyatdagi o'rnini belgilab berish, O.Bazaluk esa yangi XXI asrda butun koinotni umum-falsafiy anglashga oid "kosmologik konsepsiya" davrida ta'lim falsafasining o'rnini yoritish borasida tadqiqot ishlarini olib borishgan. G.Ashin, I.Zaxarova va A.Korniyeenko, V.Lavriyenko kabi olimlar ta'limning tarixiy rivojlanishi va ularning hozirgi davrda duch kelayotgan muammolarini chuqur tahlil qilganlar⁴.

O'zbekistonda ta'lim tizimi masalalari M.Behbudiy, A.Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov tomonidan tahlil etilgan. Ta'lim madaniyatini rivojlantirish va zamonaviy muammolariga yechim topishga qaratilgan masalalar O.Fayzullayev, S.Shermammedov, E.Yusupov, M.Quronov, I.Saifnazarov, Z.Davronov, Z.Qodirova, N.Hakimov kabi olimlarning qator ilmiy izlanishlarida aks etgan. Shuningdek, yosh olimalardan U.Qudratova, D. Amriddinova tadqiqotlarida ta'lim tizimining turli jihatlarini tadqiq etilgan. Mamlakatimiz tadqiqotchilari orasida ta'limni zamonaviylashtirish masalalariga Sh.Sadikov, N.Asadullina, Z.Tuxtayeva, D.Rahimova ilmiy tadqiqotlarida to'xtalib o'tilgan. Ta'limning Sharq va G'arb ilmiy merosidagi o'rnini, uning jamiyat taraqqiyotining asosini shakllantiruvchi hodisa ekanligi B.To'rayev, S.Choriyevning ilmiy tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etgan. S.Nishonova yuksak bilim va madaniyatni shakllantirishni ko'zda tutuvchi ta'lim paradigmalarini rivojlantirish, Yu.Abdullayev zamonaviy xorijiy oliy maktabning (G'arb modeli ustuvor holda) konseptual tavsiflarini umumlashtirib, ulardan mamlakatimizdagi ta'lim tizimini rivojlantirishda foydalanish, Q.Yuldoshev milliy sog'lom pedagogik falsafiy tafakkurni shakllantirish, B.Ziyamuhamedov pedagogikaning falsafiy asoslari, E.G'oziyev ta'lim jarayonini milliy psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish, K.Zaripov oliy o'quv yurti talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni kompleks tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslari, R.Yuldashev ta'lim muammolarini, falsafiy bilimlarning ta'lim

240.; Ортега Гассет Х. Миссия в университет. – Минск: БГУ, 2005. – 104. с.; Уайтхед А. Наука и современный мир. Избранные работы по философии (1990) – С. 132-141; Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916. – 211 p.

³ Бенин В. Л. Культура и образование. – Москва: Флинта, 2016. – 435 с.; Буров А.Г. Системный подход к эстетическому воспитанию. – Москва: Педагогика, 1980. – 165 с.; Лихачёв Б. Т. Педагогика. //Учебное пособие. – Москва: 2001. – 148 с.; Грехнёв В. С. Культура педагогического общения. – Москва, Просвещение, 1990. – 144 с.; Долженко О. В. Очерки по философии образования. – Москва, Промедиа, 1995. – 239 с.; Разумный В. А. Педагогика и культура. – Москва: Педагогика, 1978. – 172 с.; Крутецкий В. А. Актуальные психолого-педагогические проблемы обучения и воспитания. – Москва: Педагогика, 1970. – 210 с.; Караковский В. А. Директор – учитель – ученик. – Москва, Знание, 1982. – 92 с.; Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая прогностика. Теория, методология, практика: Учебное пособие / Б.С. Гершунский. –Москва: Флинта: Наука, 2003. – 768 с.

⁴ Базалук О.А. Философия образования в свете новой космологической концепции. Учебник. – Киев: Кондор, 2010. – 214 с.; Ашин Г.К. Сравнительный анализ современных моделей элитного образования в развитых странах Европы и Северной Америки. // <https://www.klex.ru/t0w>; Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. – 192 с.; Погукаева Н. В. Научная тема как элемент структурной схемы современной науки //Известия Томского политехнического университета. Инжиниринг георесурсов. – 2010. – Томск: 316. – №. 6. – С 60-63.; Лавриненко В. Н. Основы философии: Учебник и практикум для СПО. 8-е изд., пер. и доп. – Москва: Юрайт, 2016. – 416 с.

jarayonidagi o'zni va ahamiyatini, ta'limda innovatsion shaxsni shakllantirish masalalari, M.Ergasheva ta'limning sinergetik qonuniyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan⁵.

Mazkur dissertatsiyani yozish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan, shuningdek, boshqa bir qator o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari chuqur o'rganildi va tahlil qilindi. Mavjud ilmiy adabiyotlar va izlanishlar tahlili yangi O'zbekistonda ta'lim madaniyatini yuksaltirish omillari mustaqil tadqiqot obekti sifatida alohida o'rganilmaganini ko'rsatib, ushbu uo'nalishda amalga oshirilgan ishlardan farqli ravishda ta'limni fenomenal tushunish, zamonaviy ta'lim madaniyatini rivojlantirishning konseptual asoslarini yangilashga diqqat-e'tibor qaratilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy ta'lim madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

⁵ Махмудхужа Бехбудий. Танланган асарлар. 3-нашри. -Т.: "Маънавият", 2006. 257 б.; Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар.5-жилдлик (2001–2010); Abdurashidxonov, M. (1911). Tarixi Qavm Turk. A work on the history of Turkic peoples, contributing to the cultural and educational reform movement in Central Asia.; Fayzullayev O. Philosophy and methodology of subjects. 2006. - 166 p.; Yusupov E.H. Smart-ta'lim konsepsiyasi va uning asosiy elementlari //Academic research in educational sciences. 2021. – T. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 176-178.; Quronov M. Scientific and pedagogical bases of national education in general secondary schools of Uzbekistan: Ped. fan. dok... diss. – 1998.; Saifnazarov I. Xususiy ta'lim rivoji ta'lim sifatini oshirishning muhim omili / Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini yaratish nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. – Toshkent, 2019. – B. 14-16.; Davronov Z. Problems in the system of assigning allowances in Uzbekistan and the ways of their solution //International Journal of Management IT and Engineering. 2020. – T. 10. – №. 3. – С. 35–46.; Qodirova Z. Dars jarayonida ta'lim texnologiyalarini samarali foydalanishni tashkil qilish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 45-50.; Хакимов Н. Х. "Реформирование высшего образования в контексте нового этапа развития Узбекистана" Аудиторские ведомости 3 (2024): -С. 210-215.; Kudratova U. Fan va ta'lim integratsiyasi jarayonida o'qituvchining roli // Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. – Toshkent: 2019. – B. 344-346.; Amridinova D. T. The Role of Digital Economy and its Impact on Online Education in Uzbekistan //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – T. 1. – №. 8. – С. 64–70.; Садыков Ш. Ш. Основные направления совершенствования высшего образования республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации экономики // Открытое образование. 2021. №1. –С. 40-47; Асадуллина Н.Р., Павлов К.В. Модель инновационного развития высшего образования в условиях цифровизации экономики узбекистана // Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. 2023. №6-2. –С. 67-82; Тўхтаева З.Ш., Каноатова Д.С., Жамолов Ж.Т. Интеграционные процессы в развитии системы высшего образования в узбекистане // Вестник магистратуры. 2019. №4-3 (91) –С. 164-168; Рахимова Д.У., Убайдуллаева Д.О., Жамолидинова З.М. Трудности внедрения новых педагогических технологий в учебный процесс // Теория и практика современной науки. 2018. №6 (36). –С. 32-38;Тўраев Б.О. Абу Райхон Беруний, – Тошкент: Тафаккур, 2009. – 96 б.; Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври. Европа фалсафаси. - Тошкент: "Tafakkur qanoti", 2015. – 112 б.; Нишинова С. Ортада колган йўл. – Тошкент: Шарк, 2019. -176 б.; Ю.Абдуллаев. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. –Тошкент: F.Ғулом, 2001. 288 б.; Қ.Йўлдошев. Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Педагогика фанлари докторлик диссертацияси. –Тошкент: 1997. -214 б.; . Зиямухамедов Б.Г. Основы педагогического мастерства и методология практической реализации региональной модели педагогической технологии. –Ташкент: Тафаккур, 2010. -180 с.; G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik –Toshken: Universitet, 2001. 162 b.; Ergasheva M.T. O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlaridan foydalanish metodikasi // Metodik qo'llanma. –Toshkent: 2023. 160 b.;

Tadqiqotning vazifalari:

ta'lim madaniyatining falsafiy mohiyatini aniqlash va "ta'lim madaniyati" tushunchasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasini tadqiq etish;

G'arb va Sharq mutafakkirlarining ta'lim madaniyati konsepsiyalarini qiyosiy tahlil qilish;

ta'lim va madaniyatning dialektik aloqadorlik xususiyatlari, funksiyalari, ta'lim madaniyatining axloqiy-me'yoriy aspektlarini aksiologik yondashuv asosida ochib berish;

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim madaniyatining transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish;

ta'lim madaniyatini yuksaltirishning innovatsion mexanizmlarini yangicha konseptual yondashuvlar asosida takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obekti sifatida zamonaviy jamiyatda ta'lim madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi va namoyon bo'lish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ta'lim madaniyatining rivojlanish tendentsiyalari, omillari va tamoyillarining ijtimoiy institut sifatida insonni ma'naviy-axloqiy kamolot sari yo'naltirishdagi o'rni, shuningdek, ta'lim madaniyatini yuksaltirishning konseptual asoslarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, aksiologik, sinergetik, komparativistik va fenomenologik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

madaniyat va ta'lim o'rtasidagi dialektik aloqadorlik asosida vorisiylik, kogerentlik, integrallashuv, tizimlilik kabi printsiplarning rivojlanish dinamikasi ta'lim madaniyati mazmunini falsafiy-reproduktiv tizim sifatida boyitishi, barqaror rivojlanishni ta'minlashi, "uzluksizlik – izchillik – yaratuvchanlik"ni uyg'unlashtirishi, insonni ijodiy subektga aylantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan;

ta'lim madaniyatining ijtimoiy-ma'naviy tizimning dinamik modeli sifatidagi maqsad (insonni komillikka yetaklovchi g'oyaviy yo'nalish), qadriyat (madaniy meros va axloqiy meyorlar tashuvchisi), salohiyat (intellektual va ma'naviy resurslarini faollashtiruvchi kuch), hamkorlik (muloqot va o'zaro ta'sirni yo'lga qo'yuvchi shakl) kabi komponentlari madaniyat orqali ta'lim, ta'lim orqali madaniyat" konsepsiyasi asosida jamiyat taraqqiyotining ma'naviy harakatlantiruvchi kuchi (taraqqiyot motivi) ekanligi dalillangan;

ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatida shaxsiy ekzistentsial (shaxs sifatida shakllanish, o'zligini anglash ehtiyoji va ichki mas'uliyat), pozitiv (ijodkorlik va ishonch) va aksiologik (qadriyatlar ustuvorligi, madaniyatni ma'naviy meyorlar asosida rivojlantirish) yondashuvlarga amal qilish ta'lim madaniyatining konstruktiv potentsialini (insonni o'zligini anglash, ijtimoiy faollik va ma'naviy yetuklik) oshirishi aniqlashtirilgan;

ta'lim madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va konstruktiv jihatlariga oid kreativ (ta'lim jarayonining ijodiy mohiyati, tafakkur yangilanishi va erkin fikrlashga yo'naltiruvchi imkoniyatlari), innovatsion (ta'lim madaniyatining

zamonaviy texnologiyalar, yangi metodlar va raqamli jamiyat muhitida rivojlanish yo'nalishlari) hamda informatsion (bilimlar almashinuvi, axborot oqimi va intellektual faoliyatni boshqaruvchi mexanizmlar) mezonlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'lim va madaniyat tushunchalari dialektik bog'liqligining bilim, qadriyat va axloqiy tajribani uzluksiz ravishda avloddan avlodga o'tkazuvchi mexanizmi (evolyutsion mohiyat) tarixiy xotira va madaniy izchillikni ta'minlovchi tizim ekanligi, ijtimoiy barqarorlik va gumanistik islohotlarning tayanchi sifatida (transformatsion) namoyon bo'lishi hamda kreativ tafakkur va bilimni yangilash shakllariga asoslangan innovatsion tizim sifatidagi xususiyatlari ochib berilgan;

ta'lim tizimining sivilizatsion istiqboli insonni ijodkor, mas'uliyatli, gumanistik qadriyatlarga tayangan subekt sifatida shakllantirishga yo'naltirish kabi shaxsiy rivojlanish omiliga hamda bilimning faqat informatsion qiymatini emas, balki uning inson va jamiyat taraqqiyotidagi axloqiy, estetik va ijtimoiy mas'uliyatli funksiyasini kuchaytirish kabi bilim sifatining aksiologik ahamiyatiga bog'liqligi asoslangan;

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim madaniyatini yuksaltirishning tizimli-institutsional (ta'limning g'oyaviy-aksiologik asoslarini muvofiqlashtirish, ta'lim siyosatini madaniyat va ma'naviyat dasturlari bilan integratsiya qilish), innovatsion-pedagogik (kreativ kompetensiyalarni shakllantirish, ta'limni shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish), ma'naviy-axloqiy (ta'lim dasturlarida ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosni singdiruvchi modullar, madaniy refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish) mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'lim strategiyasini ilmiy asoslashda, zamonaviy ta'lim madaniyatining falsafiy mazmunini tahlil etish orqali ta'lim istiqbolini modellashtrishda, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirishga, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda nazaruy-metodologik asos sifatida, shuningdek, ta'lim jarayonida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan tizimdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimga o'tish, ta'limni shaxsiy rivojlanish, gumanizm va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga tayangan holda tashkil etish, talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi

uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ta‘lim muassasalari va davlat, jamoatchilik tizimlari va ma‘naviy-ma‘rifiy markazlarning so‘rovlar o‘tkazish, Yangi O‘zbekiston sharoitida ta‘lim jarayonini insonparvarlik, halollik, shaffoflik va ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillariga tayangan holda rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, ta‘lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonida yuqori natijalarga yo‘naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishga qaratilgan dasturlarni tayyorlashda, ta‘lim strategiyasini milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlarga moslashtirish, mehnatsevarlik va yaratuvchanlik ruhini rivojlantirishda, ta‘lim madaniyatini rivojlantirishga oid o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar hamda o‘quv-metodik majmualarni yaratishda foydalanilish foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy ta‘lim madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalarini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

madaniyat va ta‘lim o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik asosida vorisiylik, kogerentlik, integrallashuv, tizimlilik kabi printsiplarning rivojlanish dinamikasi ta‘lim madaniyati mazmunini falsafiy-reproduktiv tizim sifatida boyitishi, barqaror rivojlanishni ta‘minlashi, “uzluksizlik – izchillik – yaratuvchanlik”ni uyg‘unlashtirishi, insonni ijodiy subektga aylantirishga oid ilmiy xulosalar va yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan KA-3-007-raqam “O‘zbekistonda fan va ta‘lim integratsiyalashuvi jarayonining ijtimoiy, ma‘naviy-axloqiy, konseptual falsafiy muammolari tahlili” amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 16-iyundagi 04/11–3760-son ma‘lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini yanada takomillashtirishga, mamlakatimizda ta‘lim madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilgan;

ta‘lim madaniyatining ijtimoiy-ma‘naviy tizimning dinamik modeli sifatidagi maqsad (insonni komillikka yetaklovchi g‘oyaviy yo‘nalish), qadriyat (madaniy meros va axloqiy meyorlar tashuvchisi), salohiyat (intellektual va ma‘naviy resurslarini faollashtiruvchi kuch), hamkorlik (muloqot va o‘zaro ta‘sirni yo‘lga qo‘yuvchi shakl) kabi komponentlari madaniyat orqali ta‘lim, ta‘lim orqali madaniyat” konsepsiyasi asosida jamiyat taraqqiyotining ma‘naviy harakatlantiruvchi kuchi (taraqqiyot motivi) ekanligiga doir metodologik g‘oyalar va yangiliklardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas‘uliyatini oshirish” chora-tadbirlar dasturining VII “Milliy tarbiya an‘analari, vositalarini, shakllarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tajribalar, to‘plangan tarbiyaviy meros asosida “Milliy tarbiya ensiklopediyasi”ni yaratish”da foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil 13-dekabrda 02-22/1423-son ma‘lumotnomasi). Natijada, bugungi kun yoshlarini millat, uning tarixga bo‘lgan munosabatini faktik materiallar bilan

yoritish hamda madaniyatning ta'lim g'oyalari tizimidagi mavqei va o'rnini analitik tahlil qilishga xizmat qilgan;

ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatida shaxsiy ekzistentsial (shaxs sifatida shakllanish, o'zligini anglash ehtiyoji va ichki mas'uliyat), pozitiv (ijodkorlik va ishonch) va aksiologik (qadriyatlar ustuvorligi, madaniyatni ma'naviy meyorlar asosida rivojlantirish) yondashuvlarga amal qilish ta'lim madaniyatining konstruktiv potentsialini (insonni o'zligini anglash, ijtimoiy faollik va ma'naviy yetuklik) oshirishiga oid taklif-tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan ERASMUS+ dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida belgilangan amaliy vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 8-avgustdagi 99/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy-tadqiqot loyihasini yanada takomillashtirishga, zamonaviy ta'lim madaniyatini shakllantirishga oid takliflar ishlab chiqishga, ta'lim jarayonini innovatsion g'oyalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim madaniyatini yuksaltirishning tizimli-institutsional (ta'limning g'oyaviy-aksiologik asoslarini muvofiqlashtirish, ta'lim siyosatini madaniyat va ma'naviyat dasturlari bilan integratsiya qilish), innovatsion-pedagogik (kreativ kompetensiyalarni shakllantirish, ta'limni shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etish), ma'naviy-axloqiy (ta'lim dasturlarida ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosni singdiruvchi modullar, madaniy refleksiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish) mexanizmlariga doir taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2023-yil efirga uzatilgan "Assalom Samarqand!" ko'rsatuvining dastur senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 18-iyuldagi 01-07/249-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarni innovatsion shaxs sifatida shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning jadallashuviga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 150 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining

ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ta’lim madaniyati: shakllanishi va rivojlanishining falsafiy metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda ta’lim madaniyati tushunchasi va uning tarkibiy tuzilmasi nazariy-metodologik tahlil etilgan, ta’lim va madaniyat aloqadorligi hamda evolyutsion-dinamik rivojlanishi falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Madaniyat va ta’limning o'zaro ta'siri uch yo'nalishda: ta'limning madaniy genezisi funksiyalari, ularning gumanistik va axloqiy yo'nalishlari; antropologik pozitsiyaga asoslangan yangi pedagogik tadqiqot metodologiyasi negizida insonni ta'lim va madaniyat jabhasida turib, madaniyat subyekti sifatida baholash; ta'limni madaniyat bilan bog'liqlik muammolarini tushunishning metodologik darajasini asoslash orqali uni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tahlil qilish bilan belgilangan.

Tadqiqotda ta'lim va madaniyatning mazmun-mohiyatini turli rakurslarda tushuntirib beradigan talqinlar keltirilgan. Ta'lim va madaniyat aloqadorligining konstruktiv jihatlari e'tiborga olinib, ularning ijtimoiy rivojlanishga ta'siri, yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qo'shadigan hissassi asoslab berilgan. Bunda asosiy e'tibor ta'limning madaniyat orqali erishilgan bilimlarni tartibli shaklda yetkazishi va ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ahamiyat berilgan. Ta'lim va madaniyat orqali shaxs o'zida axloqiy, ijtimoiy hamda madaniy ko'nikmalarni shakllantirib, jamiyatda madaniy va axloqiy normalarning saqlanishini ta'minlaydi. Madaniyat inson ruhiga ishlov berilishi, parvarishini anglatadi, shuningdek har bir davrda fan va ta'limning asosida turadi⁶. Shuning uchun ham madaniyat inson mavjudligining ontologik asosi sifatida paydo bo'ladi.

Dissertant ta'lim asosida shunchaki bilim olish yoki mutaxassis bo'lishni emas, balki eng oliy insoniy jihatlar, fazilatlarni shakllantirish, pirovardida ta'lim oluvchining nafaqat o'zi balki butun insoniyatga manfaatlari yetkazishini nazarda tutgan. Bu esa ta'lim madaniyati shakllantirilgandan so'ng kechadigan jarayon sifatida izohlanadi. Demak, ta'lim madaniyati asosida bugungi islohotlar jarayonida ta'lim oluvchining aqliy-intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish maqsadini ustuvor qilib qo'ymoqda. Ta'lim va ta'lim muassasalari ma'lum bir davr shaxsining ijtimoiy-madaniy faoliyatini jamlaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy qadriyatlar va ta'lim bilimli shaxsning jamiyatdagi ahamiyati bilan belgilanadi.

Tadqiqotchi ta'rifga ko'ra: *“Ta’lim madaniyati – bu shaxs yoki jamiyatning ijtimoiylashuvi va rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy-ma’naviy qadriyatlarni yaratish bilan bog’liq ijodiy faoliyat jarayonining mahsulidir”*. Ta'lim madaniyati kontseptsiyasi deganda ta'lim jarayonida madaniyat, axloqiy

⁶ Qodirova Z. Dars jarayonida ta'lim texnologiyalarini samarali foydalanishni tashkil qilish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 22. – С. 48.

qoidalar, qadriyatlar va urf-odatlarini o'rganish, ularni yosh avlodga yetkazish orqali ularning ma'naviy va madaniy shakllanishiga hissa qo'shishi tushuniladi⁷. Bu konseptsiya turli omillar orqali amalga oshishi va bir qancha komponentlari mavjud. Bunga ta'lim jarayonini tashkil etuvchi asosiy elementlar kiritilgan bo'lib, ular ta'lim tizimining sifati, maqsadi va mazmunini bildiradi. Ta'lim ishtirokchilari ta'lim jarayonidagi faoliyati va qatnashish darajasi ta'lim madaniyatini shakllantirishi, o'z madaniy identifikatsiyalarini va shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Dissertatsiyada zamonaviy dunyoning bugungi manzarasini yoritishda eng avvalo insoniyat - ta'lim va jamiyat xilma-xilligining o'zaro bog'liqligini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ta'lim madaniyati evolyutsiyasi haqida gapirganda, ijtimoiy tarixiy jarayonni va ma'lum davrlarni hamda ta'lim madaniyatini - sivilizatsiyani saqlash va yanada rivojlantiruvchi ijtimoiy madaniy hodisa sifatida talqin qilingan. Dastlab ta'limning - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni asosida, kishini hayotga va mehnatga tayyorlash amalga oshirilganligi ta'kidlanib, bora-bora u axborot olish, uni qayta ishlash va uzatish asosida tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirib borganligi dalillangan.

Zamonaviy ilmiy-nazariy tadqiqotlarda ta'lim jarayonining mohiyatini talqin etishda turli konseptual qarashlar shakllangan:

- ijtimoiy-sotsiologik talqin;
- pedagogik-didaktik konseptsiya;
- psixologik konseptsiya;
- falsafiy-dialektik konseptsiya;

Ta'lim madaniyati strukturasidagi asosiy elementlar - ta'lim sifati, bilim darajasi va natijalar (individual rivojlanish ko'rsatkichlari) ta'lim madaniyatining asosiy mohiyatini ifodalaydi. Ta'lim madaniyatining vujudga kelishi va izchil taraqqiyoti birinchi navbatda o'quv jarayonining maqsadli va samarali tashkil etilishiga bog'liq. Ta'lim tizimining fundamental vazifalaridan biri bilish jarayoniga oid funksiyani amalga oshirishdir. Inson o'z tabiatiga ko'ra o'zining mavjudligini tushunishga harakat qiladi. Shu sababli insonni - olamning tarkibiy qismi sifatida - o'rganish uning atrofdagi muhitda samarali faoliyat yuritishiga ko'maklashadi.

Ta'lim madaniyati ikki asosiy xususiyat orqali namoyon bo'ladi: bu – shaxsiy rivojlanishga va bilim sifati hamda mazmuniga yo'naltirilgan e'tibordir. U postklassik bo'lmagan ratsionallikning ilmiy g'oyalari majmuasini ongli o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Madaniy fenomen o'z tabiatiga ko'ra ta'limdan kengroq ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, aynan madaniy muhit ta'lim jarayonining tarkibi, maqsadi va yo'nalishini shakllantiruvchi muhim faktor sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya faoliyati jamiyat hayotining ajralmas elementi bo'lib, unda madaniy normalar, qadriyatlar va tarixiy meroslar to'planadi. Ular shaxsni jamiyatga moslashtiradigan asosiy vositalardan birini yaratadi. Bundan tashqari, madaniy muhit inson faoliyati mahsuli, jamiyat tomonidan tan olingan moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ham o'zida jamlaydi.

⁷ Sultonmurod Olim. Ma'naviy barkamollik sir-sinoati. -Toshkent: 2015. –B.14.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, madaniyat insonning atrofdagi olam bilan munosabatini ko'rsatuvchi jamiyat orqali avlodlarga o'tadigan usullar, ko'rinishlar va me'yorlar to'plami sifatida tushuniladi. Bu kontekstda ta'lim faoliyati kishilarni hayotiy amaliyot va kasbiy faoliyatga moslashtiradigan, ularga zarur bilimlar, tajriba va kompetensiyalar beradigan jarayon bo'lib, madaniy merosni izchil davom ettiradigan muhim ijtimoiy institut vazifasini bajaradi. Jamiyatdagi ta'lim madaniyati - bu shaxs, jamoa va davlatning ijtimoiy faoliyat ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lish jarayonlarini ko'rsatadigan obyektiv parametr bo'lib, u shu bilan birga odamlarning ijtimoiy faollik darajasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Bu jihatdan ta'lim madaniyati nafaqat davlat aholisining savodxonlik ko'rsatkichi, balki muayyan tarixiy bosqichda jamiyat taraqqiyotining asosiy indikatorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy ta'lim madaniyati va axloqiy tafakkur taraqqiyotini ekzistensial falsafa kontekstida tahlil qilish xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ta'lim madaniyati taraqqiyotining falsafiy yo'nalishlari va ta'lim jarayonini tashkil etishda shaxsiy-ekzistensial yondashuvning ijtimoiy-falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, ta'lim madaniyatining axloqiy-me'yoriy aspektlari aksiologik yondashuv asosida ochib berilgan.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini va ijtimoiy ko'rinishini tubdan o'zgartirgan islohotlar, jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatishi, bu ta'lim ijtimoiy institutini sezilarli darajada qayta tashkil etishga olib keladi. Murakkab jamiyat sharoitlarida zamonaviy individning shakllanishi bilan bevosita aloqador yo'nalishlardan biri ta'lim sektoridir. U evolyutsiyalanuvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida jamiyatning boshqa tarmoqlari bilan ko'p tomonlama munosabatlar negizida amal qiladi. Bu esa shuni anglatadiki, ma'naviy-madaniy qadriyatlar va urf-odatlar, ayniqsa ta'lim sohasida, ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy tizimlar o'zgarishiga qaramasdan, to'liq yo'qolmaydi, balki yangi ijtimoiy realliklarga uyg'unlashgan holda davomiylik kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat bir strukturadan ikkinchisiga transformatsiya qilinganda ta'lim-tarbiya mexanizmlari va ijtimoiy-madaniy urf-odatlar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, aksincha zamonaviy ko'rinishlar orqali o'z hayotiyligini saqlaydi.

Tadqiqotchi fikricha, globallashuv va davlatlararo munosabatlarning kuchayishi muhitida ta'lim strukturalarini qiyosiy o'rganish, xalqaro tajribadan oqilona foydalanish hamda jamiyat-madaniy, ekologik va tabiiy muhit faktorlari muvozanatini hisobga oluvchi kompleks ekotizim metodologiyasini qo'llash tobora zaruriy ahamiyat kasb etmoqda. Haqiqatan, bugungi kunda jamiyat hayotidagi sivilizatsion transformatsiyalar natijasida vujudga kelgan global madaniy tanazzuldan chiqish imkoniyati ta'lim madaniyati va ta'lim institutining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'lib qolgan.

Ta'lim madaniyati - jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotini yaratishga qaratilgan maqsadli faoliyat jarayonidir. Har bir jamiyatning ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyat strukturasi, uning qaysi konsepsiyalar va vazifalarni izlayotgani, qanday fikrlash asosida barqaror topayotgani bilan belgilanadi. Bu jamiyat ta'lim madaniyatining qadriyatlari, tamoyillari, mohiyati va yo'nalishlari bilan bevosita aloqador.

Dissertant fikriga ko'ra, ekzistensial falsafaning asosiy vazifalaridan biri ta'lim jarayoniga strukturali va maqsadli loyihalashtirilgan metodologiyani kiritish bo'lib, u oliy ekzistensial an'anaga xos tarzda har bir individning inson sifatida o'z borlig'iga egalik qilishi, uni tushunishi va bu borada to'liq javobgarlikni o'z ustiga olishini ko'zda tutadi. Jamiyatda ekzistensial asosga tayangan ta'lim bir necha fundamental prinsiplarni rivojlantirishga qaratilgan. Xususan:

- bolaning hayotiy yo'nalishini belgilash zarurati va salohiyati;
- sodir bo'layotgan hodisalarga shaxsiy qarashga ega bo'lish va o'zini namoyon etishning haqiqiy usullarini tushunish;
- individual hayot tajribasining noyoblighi va uni har qanday tasnifdan ustun qo'yish;
- talabalarning dunyoqarash strukturasida ro'y beradigan o'zlashtirish jarayonida ekzistensial metodologiya asosida mustaqillik, javobgarlik va tanlovga asoslangan axloqiy pozitsiyani shakllantirish zarurati.

Tadqiqotda ta'lim madaniyatini ekzistensializm falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilish natijasida ta'lim madaniyatining asosiy xususiyatlari, ya'ni, shaxsiy rivojlanish, bilim sifati, axloq hamda shaxsiy kompetentlik kiritilgan. Ta'lim jarayonini tashkil etishda shaxsiy-ekzistensial yondashuvda asosiy e'tibor shaxsning hayotiy qadriyatlari, ma'naviy izlanishlari va ichki psixologik ehtiyojlariga qaratilib, insonning shaxsiy qadriyatlari, ma'naviy rivojlanish, hayotdagi maqsad va ma'noni tushunishda yordam berishga qaratilgan. Shaxsiy-ekzistensial yondashuv ta'lim jarayonida shaxsning iroda erkinligi, mustaqil fikrlash, shaxsiy mas'uliyat va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu yondashuv doirasida muallim va talabalar o'rtasida muloqot asosidagi hamkorlik tashkil etiladi, bu esa ularni tajribalarini baham ko'rish, o'z fikrlarini ochiq ifoda etish va birgalikda ma'no yaratishga undaydi.

Dissertant zamonaviy ta'lim madaniyati sharoitida sohaviy yosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularni ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratadi. Bu borada aksiologik yondashuv ta'lim madaniyatidagi axloqiy jihatlariga chuqur ahamiyat berilishini ta'minlaydi. Bunda u ta'limning faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar shakllanadigan maydon ekanligini ko'rsatadi. Bunda ta'lim oluvchiga nafaqat nazariy bilimlar, balki axloqiy qadriyatlar, madaniyat va jamiyatdagi me'yorlarga mos fe'l-atvorni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Axloqiy-me'yoriy aspektlar ta'lim jarayonida o'quvchilarda insoniy qadriyatlarga hurmat, jamiyat va atrofdagilarga nisbatan mas'uliyat, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, shuningdek, adolat, bag'rikenglik va ijtimoiy uyg'unlik kabi qadriyatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini ma'naviy va madaniy boyitishga xizmat qilishi va bu kelajak avlodning axloqiy barkamollighi, ijtimoiy mas'uliyatini oshirishini ko'rsatib o'tadi.

Aksiologik yondashuvda ta'lim madaniyatining asosiy vazifasi ta'lim ishtirokchilarini nafaqat bilimga ega qilish, balki axloqiy me'yorlarning ahamiyatini anglashga yordam berishligi, axloqiy qadriyatlarni o'rgatish jarayonida ta'lim oluvchi shaxsiy va jamiyat darajasidagi odob-axloq me'yorlari, madaniyat

qoidalariga mos ravishda ish tutish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ekanligi aytib o'tiladi. "Axloq normalari mohiyatiga ko'ra, kishilar ijtimoiy borlig'i atributi sifatida, insonlarning bir – biriga, oilasiga, jamoasiga, Vataniga hamda butun insoniyat taqdiriga gumanistik munosabatlarini namoyon qiladi va ularning yuksak darajasi jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. Aksincha, axloq normalarining buzilishi jamiyat barqarorligiga putur yetkazadi"⁸. Demak, shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi jamiyatning insonga ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy ta'sirini aks ettiradi. Shu bilan birga, u insonning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy muhitdagi roli, qadriyatlari va tarixiy tajribasini tanqidiy hamda ijodiy anglashga yo'naltirilgan faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ta'lim madaniyatining ichki salohiyati uning muhim ijtimoiy funksiyasi – inson va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash bilan belgilanadi. Ta'lim madaniyatining tuzilmasiga daxldor bo'lgan tarkibiy jihatlar – ya'ni ta'lim sifati, bilim darajasi va shaxsiy kamolot holati – mazkur madaniyatning ichki mohiyati va ma'naviy asoslarini tashkil etadi. Ta'lim madaniyatini rivojlantirish konsepsiyasi esa shaxsning intellektual, kasbiy va individual kamolotiga yo'naltirilgan integrallashgan salohiyatlar tizimi sifatida talqin etiladi. Bu tizim doirasida tahlil qilish, baholash va o'z-o'zini baholash, umumlashtirish, aktualizatsiya qilish, birlashtirish va yangi yondashuvlar yaratish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Demak, ta'lim madaniyatining mazmun-mohiyatini mukammal anglash uchun shaxsning ma'naviy-axloqiy olami, uning ichki ehtiyojlari, intilishlari va ijtimoiy-ma'naviy salohiyatini chuqur tahlil etishga asoslangan tizimli yondashuv zarurdir. Bu yondashuv shaxsning ichki potentsialini rivojlantirish, ongli va ijtimoiy faol fuqarolikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Globallashuv sharoitida ta'lim madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari"** deb nomlangan bo'lib, unda zamonaviy ta'lim falsafasining strukturaviy va funksional mohiyati, O'zbekistonda ta'lim madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim madaniyati taraqqiyotida xorijiy tajriba va milliy an'analarni muvofiqlashtirish muammolari tadqiq etilgan.

Har bir mamlakat xalqaro hamjamiyatning bir qismi sifatida o'z milliy xususiyatlari va an'analarni saqlab qolgan holda, ta'lim tizimini dunyo tajribasi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlikda rivojlantirishi kerak. Har bir davlatning ta'lim tizimi zamonaviy pedagogik ilm va amaliyotdagi xalqaro yo'nalishlarga muvofiq taraqqiy etishi lozim, ammo bu jarayonda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda milliy urf-odatlar bilan bog'liqlikni saqlash muhimdir.

